

## MILLIY ARMIYAMIZ FAROVON HAYOTIMIZNING ISHONCHLI QALQONIDIR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10946969>

Irisboyeva Xotira Utbosarovna

O`zbekiston Respublikasi

Milliy gvardiyasiga qarashli "Temirbeklar maktabi"

Akademik litsiyi bosh o`qituvchisi

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlarning huquqiy maqomi aniq belgilab berilgan. Asosiy Qonunimizning **152-moddasida** mustahkamlab qo`yilganidek, "O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O`zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi".

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

**153-moddada** "O`zbekiston Respublikasi o`z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega" ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.<sup>32</sup>

Mudofaa hamda umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonunlar Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy-huquqiy asoslarini o`zida mujassam etgan. Shu negizda mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, barqaror va izchil demokratik taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo`lgan milliy armiyamizni yanada takomillashtirish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Haqiqatan ham, milliy armiyamizni takomillashtirish, mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi hamda hududiy yaxlitligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tinch, obod va farovon hayot barpo etishimizda o`z samarasini bermoqda. Mamlakatimizda tom ma'noda zamonaviy qurol-yarog', texnika va yetuk harbiy mutaxassislarga ega, eng yuksak talablarga javob beradigan, yurtimiz hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo`lgan professional Qurolli Kuchlar barpo etildi.

Milliy armiyamiz saflarida xalqimiz farzandlarining sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Binobarin, Vatanimiz

<sup>32</sup> O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

sarhadlarini qo'riqlash, xalqimiz tinchligi va omonligini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash o'ta mas'uliyatli vazifa hisoblanadi.<sup>33</sup>

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida professional milliy armiyamiz uchun yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlashga jiddiy ahamiyat berilayotganini ta'kidlash farz va qarz, deb o'ylaymiz. Shu maqsadda yurtimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kursantlar uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Eng asosiysi, o'tgan davrda milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toblaydigan, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan jasorat va matonat mакtabiga aylandi. Farzandlarimizning harbiy xizmatga, boshqacha aytganda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilishi kuchaydi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasi loyihasida jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarimiz qudrati, mamlakatimiz mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yana-da oshirishga alohida urg'u berilgan.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki dunyoda kechayotgan global jarayonlar ogohlik va hushyorlikni yana-da oshirishni, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lida sobitqadam bo'lishni taqozo etmoqda. Shu bois, Qurolli Kuchlar raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish dolzarb vazifaga aylanayotir.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan oliy harbiy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borayotgan harbiy xizmatchilar, professor-o'qituvchilarga sharoit yaratib berilmoqda.

Qo'shnlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, xorijdagi ilg'or tajribalarni o'rganish asosida jangovar shayligi va mahoratini oshirish ham muhim vazifa. Hozir milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash maqsadlariga bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan harbiy mojarolar xususiyatlarini, qo'shnlarni yana-da rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda e'tibor qaratilgan.<sup>34</sup>

Qurolli Kuchlar va kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlar samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish

<sup>33</sup> <https://senat.uz/articles/post-1266>

<sup>34</sup> <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m9642>

hamda yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish ham muhim vazifa. Ushbu yo'nalishda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida oliy harbiylashtirilgan ta'lif muassasalari to'g'risida nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi oliy harbiylashtirilgan ta'lif muassasalari maqsadi va asosiy vazifalarini, ta'lif jarayonini tashkil etish, shuningdek, ta'lif tizimini boshqarish tartibini belgilaydi.

Ayni vaqtda o'zbek askarlari xalqaro maydonlarda o'tkazilayotgan ko'plab nufuzli harbiy musobaqalarda ham faxrli o'rnlarni egallab kelmoqda. Jumladan, harbiylarimiz xalqaro armiya o'yinlari, "Kembriya patruli" va boshqa yirik harbiy-sport musobaqalarida bir necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'tgan yili mamlakatimiz bo'ylab "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harakati tashkil etildi. Barcha umumta'lif maktablarida mazkur harakatning 20 mingdan ziyod o'quvchi-yoshni qamrab olgan guruhlari tuzilgani farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotganini ta'kidlash lozim.

Qurolli Kuchlar akademiyasi isloh qilinib, kelgusida uning harbiy ilm-fan sohasi lokomotiviga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Oliy harbiy ta'lif muassasalarida ham yangicha yondashuv va o'quv uslublari joriy etilmoqda.

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yana-da oshirish borasida muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilyapti. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi loyihasida bu jabhadagi ishlarni yana-da yangi, yuqori bosqichga ko'tarish bilan bog'liq muhim chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Ularni o'z vaqtida amalga oshirish xalqimiz xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu yo'nalishdagi qizg'in tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va ularning ro'yobga chiqishiga hissa qo'shish har birimizning burchimizdir. Zero, faqat tinchlik-osoyishtalik orqaligina ko'zlagan ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishga, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga erishamiz.

Xulosa qilib aytganda, har tomonlama yetuk, jasur va sergak o'g'lonlarimiz azmu shijoatini ko'rganda, ko'nglimiz faxru iftixorga to'ladi. Zero, Vataniga, xalqiga sadoqatli yigitlar xizmat qilayotgan professional armiyamiz - mustaqilligimizning, tinch hamda farovon hayotimizning ishonchli qalqonidir.

Qolaversa, ota yurtni, ona tuproqni himoya qilish mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning muqaddas va sharaflı burchi hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Temur Tuzuklari. B.Ahmedov tahriri. – Toshkent: "Ilm-ziyo nashriyoti"
- 2.G'ulom Mirzo. "Milliy armiyamiz - Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqoni". <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m9642>
- 3.Qutbiddin Burxonov, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi. "Jangovar ruh va harbiy salohiyat - bu ikki qudrat qanday bo'lishi kerak?". <https://kun.uz/uz/26862813?q=%2F26862813>
4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
6. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.
7. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.
8. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.
11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI // Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.

13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children // Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.

14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ // Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.

15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА